



**DUTOR OILASI VA UNING IJROCHILIKDA
TUTGAN O'RNI**

ABSATOVA MUNISA ABDUSALOM QIZI

Termiz davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat va san'at fakulteti

Musiqiy ta'lim yo'nalishi 23-01 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: M.Xo'jageldiyeva

Musiqqa mahorati va madaniyati kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada dutorning turlari, ijrochilikdagi ahamiyati va milliy musiqa san'atidagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: dutor, dutor oilasi, torli cholg'u, ijrochilik san'ati, maqom, milliy musiqa, o'zbek musiqasi, an'anaviy cholg'u, ansambl, yakkanavoz ijro.

Abstract: The article analyzes the types of the dutar, its significance in performance, and its role in national musical art.

Key words: dutar, dutar family, stringed instrument, performance art, maqom, national music, Uzbek music, traditional instrument, ensemble, solo performance.

KIRISH

Dutor – Markaziy Osiyoning qadimiy torli cholg'u asboblaridan biri bo'lib, O'zbekiston musiqa madaniyatida muhim o'rin tutadi. U o'zining nafis ovozi, keng ijro imkoniyatlari va milliy musiqamizdagi o'rniga ko'ra xalq orasida juda mashhur. Ushbu maqolada dutor oilasining turlari, uning ijrochilikdagi ahamiyati va milliy musiqa san'atidagi o'rni tahlil qilinadi. Dutor milliy musiqa san'atining ajralmas qismi bo'lib, u xalqning ruhiy olami, tarixi va madaniyatini ifodalaydi. Dutor ijrochiligi O'zbekiston va qo'shni mamlakatlarda musiqiy meros sifatida yuqori baholanadi. Mashhur dutorchilar o'z ijodi orqali dutor san'atini rivojlantirib, uni yangi avlodga yetkazmoqda.



Bugungi kunda dutor O'zbekiston konservatoriyalari, musiqa maktablari va san'at akademiyalarida o'rganilayotgan asosiy cholg'u asboblardan biri bo'lib, milliy musiqamizni rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dutor tenor asosida dutor prima, dutor sekunda, dutor alt, dutor bas va dutor kontrabasdan tashkil topgan dutor oilasi yaratildi.

Dutorlarning sozlanishi:

Dutor prima – birinchi oktava birinchi tori lya; ikkinchi tori re, mi

Dutor sekunda – (yozilishi) birinchi tori birinchi oktava re; ikkinchi tori kichik oktava sol, lya.

Dutor alt- (eshitilishi) kichik oktava birinchi tori lya; ikkinchi tori re, mi.

An'anaviy milliy dutor- birinchi tori kichik oktava re; ikkinchi tori katta oktava sol, lya, ba'zan ikkala tori ham rega sozlanadi.

Ipak torlari o'rniga ichak tor tortiladi. Pardalar dastasini oyib xromatik holda doimiy o'rnatilgan. Torlari kvarta va unisonga sozlanadi. Birinchi oktavadagi "mi va lya" ga sozlanib, notalar skripka kalitida yoziladi. Notalar eshitishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi. Hajmi kichik oktavadagi mi-lyadan birinchi oktavadagi sol va ikkinchi oktavadagi do ga qadar.

Applikatura jihatidan rubob prima, g'ijjak asboblari o'xshab ijro etiladi. Masalan pissikato, bidratma, stakatto, va hokazo. Dutor primaning umumiy ovoz hajmi birinchi oktavadagi mi tovushidan uchinchi oktavadagi lya tovushiga qadar bo'lib, orkestrda solo va jo'rnavoz bilan ijro etiladi. Dutor sekunda - yangi ishlangan dutorlar oilasiga mansub cholg'u, ovoz jihatidan o'rtacha registrda, uning ham torlari ikki ipak tordan iborat bo'lib, kavarta oralig'ida sozlanadi. Tashqi ko'rinishi dutor primadan bir oz kattaroq qilib ishlangan, ya'ni dutorlarning kosasi bir xil, lekin dastasining uzunligi har xil ishlangan. Lya va re ga sozlanib, umumiy ovoz hajmi kichik oktavadagi lya tovushidan ikkinchi oktava re tovushigacha sozlanadi. Dutor alt – "Dutor" atamasi forsha bo'lib, "du" - ikki va "tor" ma'nolarini bildiradi. Ijrochining o'ng qo'li barmoqlari dutor torlarini cherish orqali musiqiy tovushni xosil qiladi. Chap qo'l barmoqlari bilan esa tovush pardalari boshqariladi.



Boshqa xalqlarda bo'lgani kabi, o'zbeklarda ham turli hududlarning mahalliy sheva guruhlarida dutorning tarkibiy qismini tashkil qiluvchi atamalar turlicha ifodalaniladi. Uning ayrim qismlarining nomlari maxsus tub ma'noga ega. Masalan "Quloq", "Xarrak", "Kosaxona" va h.k. atamalarda ana shunday ma'no mavjud.

Dutor kvarta - kvintaga, oktava va unisonga ham sozlanadi. Dutorlar to'qqiz tuzilishga ega:

- 1.Dastasi
- 2.Kosasi
- 3.Asosiy harrak
- 4.Shayton harrak
- 5.Quloqlari
- 6.Pardalari
- 7.Tiqn ya'ni simni ko'rsatuvchi
- 8.Ovoz joyi
- 9.Simlari ya'ni lya va mi

Dutor an'anaviy cholg'ular orasida turli va rang barang zarblarga boy, nafis va nazokatli, falsafiy ovozga boyligi bilan ham ajralib turadi. Shuningdek dutorda quyidagi shtrixlar kop qo'llaniladi:

Yakka zarb - oddiy zarblardan biridir. Sozanda dutorni dastlabki o'rganish davrida o'ng qo'lda quyidagi belgilar asosida II- (pastga) va V- (yuqoriga) zarblar asosida ochiq torda harakatlantiriladi. II - (pastga) harakat belgisini bildiradi, bunda bosh barmoqdan tashqari barcha barmoqlar pastga harakatlanadi. V - (yuqoriga) harakat belgisi, bosh barmoq pastdan yuqoriga harakatlanadi, bunda bosh barmoqqa qolgan to'rtta barmoq yig'ilgan holatda qo'yilib, birga harakatlanadi.

Yuqoriga zarb - pastdan yuqoriga bosh barmoq bilan uriladi. Zarb kuchli chiqishi uchun bosh barmoq tagidan ko'rsatkich va o'rta barmoqlar itarib chiqaradi. Bu zarb B (bosh barmoq) belgisi bilan belgilanadi.

Terma zarb - (Tanovar zarbi) dator ijrochiligida keng qo'llaniladigan zarblardan hisoblanadi. Asosan bosh va ko'rsatkich barmoqlar ishtirokida amalga oshiriladi. Zarb yuqoridan pastga urila boshlaganda avval ko'rsatgich barmoq keyin esa bosh



barmoq torni urib pastga harakat amalga oshiriladi. Bu zarb notada “k” belgisi bilan ko‘rsatilgan.

“Tremolo – italyan tilidan – tremolo – titrab turuvchi, titrab turish ma’nosini bildiradi”. Ushbu zarbni maromiga yetkazib ijro etish uchun ijrochidan ancha mehnat va qunt talab qilinadi. Tremolo – bilak yordamida ko‘rsatkich barmoqni pastga va tepaga torlarni tez va uzluksiz chertishdan hosil bo‘ladi. Ushbu zarbni yozuvda ifodalash uchun, notalarning yuqori qismiga “tremolo” yoki “trem.” so‘zlari yoziladi. Asar ijrosdida tremoloning sifati zarbning bir tekis ijro etilishiga bog‘liqdir. Teskari zarb – dutor ijrochiligida eng ko‘p ijro etiladigan zarblardan biri. Ushbu zarbning o‘nlab xilma – xil ko‘rinishlarini ijro qilish mumkin. Bu ijrochiga bog‘liq.

Ushbu zarb o‘ng qo‘l bilagi bilan pastga, bosh barmoq bilan yuqoriga, ko‘rsatkich barmoq bilan ham yuqoriga, bilak bilan pastga, bosh barmoq bilan yuqoriga, ko‘rsatkich barmoq bilan ham yuqoriga, bilak bilan pastga, bosh barmoq bilan yuqoriga ijro etish orqali hosil bo‘ladi. Bunda o‘ng qo‘lning yo‘nalishi “IIVVIIIVVIIIV” ko‘rinishida belgilanadi. Barmoqlar esa notaning pastki qismiga quyidagicha yozib qo‘yiladi: “p.b.k.p.b.k.p.k”. Dutorda o‘ng qo‘l texnikasini o‘stirishda terma zarb, teskari zarb, rezlarni o‘rni beqiyosdir, sababi ularning har biri o‘zgacha ijro qilinadi. Ushbu zarblarda bevosita ko‘rsatkich va bosh barmoqlar qatnashadi, bilak esa yordam beradi. Bunda bilakning bir maromda yumshoq, erkin harakatlanishi ta’minlansa, turli xildagi asosiy zarblarni amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi.

Dutor ijrochiligidagi o‘rni. Dutor ijrochiligi nafislik va lirizm bilan ajralib turadi.

Bu cholg‘u asbobidan quyidagi yo‘nalishlarda keng foydalaniladi: Yakkanavoz ijrochilik – dutor solo cholg‘u sifatida xalq qo‘shiqlari va mumtoz asarlarni ijro etishda ishlatiladi.

Ansambl va orkestr ijrochiligi – dutor boshqa milliy cholg‘ular bilan uyg‘unlashib, ansambl va orkestr tarkibida ham muhim rol o‘ynaydi.

Maqom va xalq qo‘shiqlarida – maqom san’atining ajralmas qismi bo‘lib, mumtoz musiqa namunalarini ijro etishda ishlatiladi.



Zamonaviy musiqa – bugungi kunda dutor nafaqat an'anaviy musiqada, balki zamonaviy estrada va eksperimental janrlarda ham qo'llanilmoqda.

XULOSA

Dutor – o'zbek milliy musiqasi va madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, uning shakllanishi, rivojlanishi va ijrochilik san'atidagi o'rni uzoq tarixga ega. Bu cholg'u asbobi nafisligi, mayin va jozibali ovozi bilan ajralib turadi hamda xalqimizning ruhiy olami va an'anaviy san'atini aks ettiradi. Dutor nafaqat yakkanavoz cholg'u sifatida, balki ansambl va orkestr tarkibida ham o'ziga xos ovoz beruvchi asosiy cholg'ulardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada dutor oilasining turli shakllari va ularning ijrochilikdagi o'rni ko'rib chiqildi. Dutorning an'anaviy, uch torli, katta va mini turlari ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirib, musiqa san'atining turli yo'nalishlarida qo'llanilmoqda. Xalq qo'shiqlari, maqom san'ati, zamonaviy estrada va akademik musiqa dutor ijrochiligida muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda dutor san'ati O'zbekiston musiqa ta'limi tizimida muhim fan sifatida o'qitilib, yangi avlod ijrochilarini yetishtirishda muhim rol o'ynamoqda. Konservatoriyalar, san'at akademiyalari va musiqiy ansambllarda dutor ijrochiligi chuqur o'rganilib, an'anaviy hamda zamonaviy yondashuvlar uyg'unligida rivojlanmoqda. Dutor faqat milliy musiqamizning bir qismi bo'lib qolmay, balki xalqimizning ma'naviy va estetik qarashlarini ifoda etuvchi muhim san'at turi sifatida yashab kelmoqda. Uning yosh avlod orasida ommalashishi va rivojlanishi milliy musiqiy merosimizni saqlash va yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, dutor san'atini o'rganish va rivojlantirish milliy madaniyatimizga bo'lgan hurmat va sadoqatning yana bir yorqin namunasidir.

ADABIYOTLAR

1. Alimov, B. (2004). O'zbekiston xalq musiqa asboblari. Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti.
2. Askarov, R. (2009). Markaziy Osiyo musiqa madaniyati. Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Karimov, A. (2011). O'zbek musiqa san'ati: Tarix va rivojlanish. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.



4. Mirzayev, M. (2016). Dutor va uning tarixi. Toshkent: Ijtimoiy fikr nashriyoti.
5. Xudoyberdiyev, N. (2017). Maqom san'ati va dator. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.
6. Usmanov, F. (2015). Markaziy Osiyo musiqa asboblari va ijrochilik. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.